

B.TX

Soliq solish asoslari

2026 yilda imtihonga tayyorgarlik
uchun o'quv-uslubiy qo'llanma



B.TX

Солиқ солиш асослари

2026 йилда имтиҳонга тайёргарлик
учун ўқув-услубий қўлланма



B.TX

Soliq solish asoslari

2026 yilda imtihonga tayyorgarlik
uchun o'quv-uslubiy qo'llanma



Mundarija

I. Umumiy qoidalar	3
II. Dasturning maqsadi.....	6
III. Dasturning bo'limlari va mavzulari	8
IV. Imtihon formati.....	10
V. Batafsil o'quv rejasi va o'quv maqsadlari.....	11
VI. Baholanadigan bilim va ko'nikmalar mavzulari bo'yicha huquqiy hujjatlar.....	22

B.TX Soliq solish asoslari

2026 yilda imtihonga tayyorgarlik uchun o'quv-uslubiy qo'llanma

I. Umumiy qoidalar

O'zbekiston sertifikatlangan moliya mutaxassislari uyushmasi (ACFP) «Soliqlar va soliq solish» fani bo'yicha imtihonga tayyorgarlik dasturini ishlab chiqdi.

Soliqlar va soliq solish bo'yicha bilim va ko'nikmalar moliya mutaxassisiga quyidagilar uchun zarur:

- Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarga, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkor bo'lmagan jismoniy shaxslarning daromadlariga soliq me'yorlariga muvofiq soliq solish;
- Imtiyozlar va preferensiyalardan foydalangan holda soliq to'lovchilarning soliq majburiyatlarini qonuniy yo'l bilan maqbullashtirish;
- Jarimalar va yuridik muammolarga olib kelishi mumkin bo'lgan xatolar va huquqbuzarliklarning oldini olish;
- Ish beruvchi yoki buyurtmachiga biznes qarorlarining soliq oqibatlari bo'yicha maslahat berish;
- Talab qilinadigan axborot va hujjatlarni taqdim etgan holda soliq organlari bilan samarali hamkorlik qilish;
- Soliq organlari bilan nizolarda soliq to'lovchilarning qonuniy moliyaviy manfaatlarini himoya qilish.

Moliya mutaxassisi egallashi kerak bo'lgan soliq mavzulari keng va xilma-xildir. Ba'zi soliqlar murakkab bo'lib, batafsilroq o'rganishni talab qiladi. Shuning uchun «Soliqlar va soliq solish» imtihoni ikki bosqichda o'tkaziladi. Bu nomzodlarga quyidagi imkoniyatlarni beradi:

- Soliq solishning nazariy va amaliy jihatlarini o'zlashtirish uchun etarli vaqt va kuch ajratish;
- Moliya mutaxassislari ishlaydigan soliq doirasini chuqurroq va to'liqroq tushunish va bu bilimlarni qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish;
- Yuridik va jismoniy shaxslarga soliq solishni batafsil o'rganish;
- Soliq solish sohasidagi bilim va ko'nikmalarini yaxshiroq isbotlash;
- Bilim va ko'nikmalarni amaliyotda ishonchliroq qo'llash.

B.TX Soliq solish asoslari imtihoni CFS – Certified Finance Specialist bazaviy malakasi va/yoki CePNUz – O'zbekiston Respublikasining soliqlar va huquq bo'yicha bazaviy diplomini olish uchun topshiriladi.


CFS malakasi va CePNUz diplomining tuzilishi

CFS bazaviy malakasini olish uchun nomzod B.TX Soliq solish asoslari imtihonidan tashqari, quyidagi imtihonlarni topshirishi kerak:

- B.FR Moliyaviy hisob va hisobot asoslari
- B.FM Moliyani boshqarish asoslari
- B.AU Audit va ishonchni ta'minlaydigan topshiriqlar asoslari
- B.MA Boshqaruv hisobi asoslari
- B.OO Tashkilot va uning faoliyati
- B.LW Huquq asoslari
- B.PA Amaliy buxgalteriya asoslari

Shuningdek, «Axloq va professional xulq asoslari» (B.EP) kursidan o'tish zarur.

CePNUz diplomini olish uchun nomzod B.TX Soliq solish asoslari imtihonidan tashqari, B.LW Huquq asoslari imtihonini topshirishi kerak.



ACFP malaka darajalari tizimi

ACFP malakalari to'rtta izchil daraja bo'yicha turkumlangan:

- A darajasi (boshlang'ich)
- B darajasi (bazaviy)
- C darajasi (professional)
- D darajasi (ilg'or)


O'qishni bilim va ko'nikmalaringizga eng muvofiq keladigan darajadan boshlash tavsiya etiladi. A darajasidan boshlash majburiy talab emas. Mos keladigan darajani tanlash joriy malaka va professional tajribani o'zini o'zi baholashga asoslanishi kerak.



B.TX imtihonining ACFP tizimidagi o'rni

B.TX imtihoni moliya mutaxassislari uchun soliq solishni bosqichma-bosqich o'rganishning bazaviy pog'onasi hisoblanadi va quyidagicha topshirilishi mumkin:

- CFS malakasi (B darajasi) va/yoki CePNUz diplomi doirasida mustaqil imtihon sifatida;
- ACFP C darajasi malakasi va/yoki DiPNUz diplomining C.TX Soliq solishning o'ziga xos jihatlari imtihonini topshirishdan oldin o'tishi kerak bo'lgan «Soliqlar va soliq solish» fanining birinchi pog'onasi sifatida;
- ACCA va ACFP Moliya va biznesni boshqarish xalqaro diplomi imtihonlariga kirish huquqiga ega bo'lishni istagan shaxslar uchun majburiy imtihon sifatida.



Ta'lim natijalari

B.TX Soliq solish asoslari imtihoni dasturini o'zlashtirish natijasida nomzodlar quyidagilarga layoqatli bo'lishadi:

- Soliq solishning bazaviy konsepsiyalari va tamoyillarini tushunish;
- Biznes muhitida soliqlar turlari va soliq javobgarligini farqlash;
- Professional faoliyatning namunaviy vaziyatlarida qo'llaniladigan soliq me'yorlarini aniqlash;
- Asosiy soliq hujjatlarini tahlil qilish;
- Asosiy soliq operatsiyalariga qonunchilik talablarini qo'llash.

O'quv yuklamasi

Umuman olganda, «Soliqlar va soliq solish» fani bo'yicha ikkita imtihonga tayyorgarlik ko'rish uchun kamida 480 soat kerak bo'ladi:

	O'quv faoliyati turi	«Soliqlar va soliq solish» fani bo'yicha akademik soatlar soni		
		Tayyorgarlikning 1-bosqichi B.TX Soliq solish asoslari	Tayyorgarlikning 2-bosqichi C.TX Soliq solishning o'ziga xos jihatlari	Jami
1	Ma'ruzalar	60	60	120
2	Amaliy mashg'ulotlar	40	40	80
3	Mustaqil ish	140	140	280
	Jami	240	240	480

ASSA akkreditatsiyasi

B.TX Soliq solish asoslari va C.TX Soliq solishning o'ziga xos jihatlari imtihonlari dasturi ASSA (Association of Chartered Certified Accountants) tomonidan akkreditatsiya qilingan. Bu quyidagilarni anglatadi:

- U Moliya va biznesni boshqarish xalqaro diplomining Soliqlar imtihoni dasturiga kamida 80% muvofiq keladi;
- Bu imtihon ACFPning ikkita imtihonini (B.TX va C.TX) muvaffaqiyatli topshirganda ASSA tomonidan hisobga olinadi.

II. Dasturning maqsadi

B.TX Soliq solish asoslari («Soliqlar va soliq solish» fanining 1-darajasi) imtihoniga tayyorgarlik dasturining maqsadi nomzodlarda O'zbekistonda soliq solish va soliq ma'muriyatchiligidan umumiy qoidalarini tushunish, jismoniy shaxslar daromadlari, qo'shilgan qiymat, jami daromad va foyda, shuningdek mol-mulk, er va suvga soliq solish ko'nikmalarini shakllantirishdir.

Dasturni o'zlashtirish nomzodlarga quyidagi imkoniyatlarni beradi:

- Soliq tizimining asosiy elementlarini, shu jumladan soliqlar, soliq to'lovchilar va soliq agentlarini ta'riflash.
- Soliq ma'muriyatchiligi institutlari va vositalarini tushuntirish.
- Mehnat, mulk va tadbirkorlikdan olinadigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini tartibga soluvchi me'yorlarni tushuntirish va qo'llash;
- Aylanmadan olinadigan soliqni tartibga soluvchi me'yorlarni tushuntirish va qo'llash;
- Qo'shilgan qiymat solig'ini tartibga soluvchi me'yorlarni tushuntirish va qo'llash;
- Foyda solig'ini tartibga soluvchi me'yorlarni tushuntirish va qo'llash;
- Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk, er va suv soliqlarini tartibga soluvchi me'yorlarni tushuntirish va qo'llash.

III. Dasturning bo'limlari va mavzulari

B.TX Soliq solish asoslari imtihoni dasturi quyidagi bo'limlar va mavzularni o'z ichiga oladi:

1-bo'lim. O'zbekistonning soliq tizimi

- 1.1. Soliqlar to'g'risida umumiy qoidalar
- 1.2. Soliq to'g'risidagi qonunchilik
- 1.3. Soliq to'lovchilar va soliq agentlari

2-bo'lim. O'zbekistonning soliq ma'muriyatchiligi tizimi

- 2.1. Soliq ma'muriyatchiligi bo'yicha umumiy qoidalar
- 2.2. Soliq hisobi va soliq solish maqsadidagi hisob siyosati. Soliq hisoboti
- 2.3. Soliq majburiyatini bajarish
- 2.4. Soliq nazorati
- 2.5. Soliqqa oid huquqbuzarliklar, ularni sodir etganlik uchun javobgarlik

3-bo'lim. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i (JShDS)

- 3.1. Soliq to'lovchilar va soliq agentlari
- 3.2. Soliq ob'ekti va soliq bazasi
- 3.3. Soliq agentlarining soliq to'lovchining daromadi hisoblanmaydigan xarajatlari. Soliq imtiyozlari
- 3.4. Jismoniy shaxslarga to'lanadigan barcha turdagi daromadlar bo'yicha soliq agenti tomonidan soliqning hisob-kitob qilinishi
- 3.5. Hisobot taqdim etish va soliqni to'lash tartibi
- 3.6. Shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvarag'iga badallar
- 3.7. Yakka tartibdagi tadbirkorlar daromadlaridan soliq undirishning o'ziga xos xususiyatlari

4-bo'lim. Ijtimoiy soliq

- 4.1. Soliq to'lovchilar
- 4.2. Umumiy tartibda soliqni hisob-kitob qilish
- 4.3. Hisobot taqdim etish va soliq to'lashning umumiy tartibi

5-bo'lim. Aylanmadan olinadigan soliq

- 5.1. Soliq to'lovchilar
- 5.2. Soliqni hisob-kitob qilish
- 5.3. Hisobot taqdim etish va soliqni to'lash tartibi

6-bo'lim. Qo'shilgan qiymat solig'i (QQS)

- 6.1. Soliq to'lovchilar va soliq agentlari
- 6.2. Soliq ob'ekti va tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilish joyini aniqlash
- 6.3. Imtiyozlar
- 6.4. Soliq bazasi va unga tuzatish kiritish holatlari
- 6.5. Soliqni hisobga olish va uning o'rnini qoplashning umumiy tartibi
- 6.6. Soliqni hisob-kitob qilish, hisobot taqdim etish va uni to'lash

7-bo'lim. Foyda solig'i

- 7.1. Soliq to'lovchilar va soliq agentlari
- 7.2. Soliq ob'ekti va soliq bazasi
- 7.3. Jami daromad
- 7.4. Xarajatlar
- 7.5. Soliq bazasiga tuzatish kiritish. Zararlarni kelgusi davrlarga o'tkazish
- 7.6. Soliqni hisob-kitob qilish, hisobot taqdim etish va to'lash
- 7.7. Yakka tartibdagi tadbirkorlar daromadlariga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari

8-bo'lim. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq

- 8.1. Soliq to'lovchilar
- 8.2. Soliqni hisob-kitob qilish
- 8.3. Hisobot taqdim etish va soliqni to'lash tartibi

9-bo'lim. Yuridik shaxslardan olinadigan er solig'i

- 9.1. Soliq to'lovchilar
- 9.2. Soliqni hisob-kitob qilish
- 9.3. Hisobot taqdim etish va soliqni to'lash tartibi

10-bo'lim. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq

- 10.1. Soliq to'lovchilar
- 10.2. Soliqni hisob-kitob qilish
- 10.3. Hisobot taqdim etish va soliqni to'lash tartibi

IV. Imtihan formati

B.TX Soliq solish asoslari («Soliqlar va soliq solish» fanining 1-darajasi) fani bo'yicha imtihan kompyuterda test formatida o'tkaziladi. Imtihan davomiyligi – 3 soat. Imtihonda O'zbekiston qonunchiligi ma'lumotlar bazasidan foydalanishga ruxsat beriladi.

Imtihan ikki bo'limdan iborat. A bo'limi test formatidagi 35 ta savoldan iborat bo'lib, ularning har biri bir xil vaznga ega (2 ball). A bo'limining umumiy vazni 70 ballni tashkil etadi. A bo'limi savollari imtihan dasturining istalgan bo'limiga taalluqli bo'lishi mumkin.

Imtihonning B bo'limi har biri 15 balldan 2 ta ssenariydan iborat. Har bir ssenariy test formatidagi savollar guruhi bilan birga beriladi. B bo'limining umumiy vazni 30 ballni tashkil etadi.

Nomzod olishi mumkin bo'lgan eng yuqori ball – 100 ball. O'tish bali - 100 balldan 60 ball.

E'tibor bering!

2025 yil imtihonlarining test va topshiriqlari 2024 yil 1 dekabrgacha rasman kuchga kirgan me'yoriy-huquqiy hujjatlarga asoslangan.

V. Batafsil o'quv rejasi va o'quv maqsadlari

1-bo'lim. O'zbekistonning soliq solish tizimi

1.1-mavzu. Soliqlar to'g'risida umumiy qoidalar

Ushbu mavzuni o'zlashtirgandan so'ng nomzodlar quyidagilarni bajara olishi kerak:

- A. Soliqlarning mohiyati va funksiyalarini, soliqlarning iqtisodiyot, mehnat, biznes, iste'molchilarga ta'sirini tushuntirish.
- B. Soliqlar va yig'implarni farqlash, soliqlarni tasniflash.
- C. O'zbekistondagi soliq va bojxona to'lovlarini sanab o'tish.
- D. Soliq solish tamoyillarini ta'riflash.
- E. Turli soliq rejimlarini taqqoslash.
- F. Soliq elementlarini ta'riflash.

1.2-mavzu. Soliq to'g'risidagi qonunchilik

Ushbu mavzuni o'zlashtirgandan so'ng nomzodlar quyidagilarni bajara olishi kerak:

- A. Soliq to'g'risidagi qonunchilikni tashkil etuvchi huquqiy hujjatlar turlarini sanab o'tish va ularning ierarxiyasini bilish.
- B. Soliq kodeksining tuzilishida mo'ljal olish (bo'lim, bob, modda, qism, xatboshi).
- C. Soliqlar bo'yicha huquqiy, rasmiy va norasmiy axborotni farqlash va qo'llash.
- D. Soliq to'g'risidagi qonunchilikning vaqt bo'yicha amal qilishini tushuntirish.
- E. Soliq to'g'risidagi qonunchilik bilan belgilangan hisoblash muddatning boshlanishi va tugashini aniqlash.

1.3-mavzu. Soliq to'lovchilar va soliq agentlari

Ushbu mavzuni o'zlashtirgandan so'ng nomzodlar quyidagilarni bajara olishi kerak:

- A. Soliq to'lovchilarni tasniflash va ta'riflash, yuridik va jismoniy shaxslarni ularning soliq maqomi bo'yicha farqlash.
- B. Soliq to'lovchilarning huquq va majburiyatlarini ta'riflash.
- C. Soliq munosabatlarida vakillik institutini tushuntirish.
- D. Soliq agentlarining huquq va majburiyatlarini tushuntirish.

2-bo'lim. O'zbekistonning soliq ma'muriyatchiligi tizimi

2.1-mavzu. Soliq ma'muriyatchiligi bo'yicha umumiy qoidalar

Ushbu mavzuni o'zlashtirgandan so'ng nomzodlar quyidagilarni bajara olishi kerak:

- A. Soliq ma'muriyatchiligi tushunchasi va uning funksiyalarini tushuntirish.
- B. Soliq to'lovchilar va soliq ob'ektlarini ro'yxatga olishning umumiy qoidalarini ta'riflash.
- C. Soliq ma'muriyatchiligi sub'ekti sifatida soliq organlarining tuzilmasi va vakolatlarini ta'riflash.
- D. Soliq organlari va soliq to'lovchilar o'rtasida axborot almashish tartibi va shakllarini, xabarlariga javob berish muddatlarini tushuntirish.
- E. Soliq to'lovchining shaxsiy kabineti vositalarini ta'riflash va undan foydalanish.
- F. Soliq siri hisoblanmaydigan soliq to'lovchi haqidagi axborotlarni farqlash, soliq sirini oshkor qilishga nima kirishini tushunish.
- G. Soliq ma'muriyatchiligini raqamlashtirish maqsadlarini tushuntirish.
- H. Soliq ma'muriyatchiligining elektron xizmatlari, axborot tizimlari va vositalarini tushuntirish va ulardan foydalanish – onlayn-KKT, elektron hisobvara-q-fakturalar, mahsulot va xizmatlarning identifikatsiya kodlari, ijara shartnomalarini ro'yxatga olish, tahlila-tahlil tizimi.

2.2-mavzu. Soliq hisobi va soliq solish maqsadidagi hisob siyosati. Soliq hisoboti

Ushbu mavzuni o'zlashtirgandan so'ng nomzodlar quyidagilarni bajara olishi kerak:

- A. Soliq solish maqsadida hisobni tushuntirish va yuritish, moliyaviy va soliq hisobi o'rtasidagi farqni ko'rsatish.
- B. Soliq solish maqsadidagi hisob hujjatlari tarkibini, ularni tuzish va saqlash qoidalarini ta'riflash.
- C. Soliq hisobi siyosatining ahamiyatini tushuntirish. Uni ishlab chiqish, tasdiqlash va unga o'zgartirishlar kiritish tartib-taomillarini ta'riflash. Soliq hisobi siyosatida nima aks ettirilishi kerakligini aniqlash.
- D. Alohida-alohida hisobni tushuntirish va yuritish.
- E. Soliq hisobotini, shu jumladan aniqlashtirilgan soliq hisobotini tuzish va uni soliq organlariga taqdim etish.

2.3-mavzu. Soliq majburiyatini bajarish

Ushbu mavzuni o'zlashtirgandan so'ng nomzodlar quyidagilarni bajara olishi kerak:

- A. Soliq majburiyatini bajarish tartibi va muddatlarini, shu jumladan da'vo qilish muddatlarini, soliq majburiyatining tugash shartlarini tushuntirish.
- B. Soliqlarni to'lash muddatlarini o'zgartirishning umumiy shartlarini tushuntirish.

- C. Soliqlarni to'lash bo'yicha kechiktirish va bo'lib-bo'lib to'lash shartlari, taqdim etish va tugatish tartibini ta'riflash.
- D. Soliq majburiyatining bajarilishi qanday usullar bilan ta'minlanishini tushuntirish.

2.4-mavzu. Soliq nazorati

Ushbu mavzuni o'zlashtirgandan so'ng nomzodlar quyidagilarni bajara olishi kerak:

- A. Soliq nazoratining mohiyatini tushuntirish, uning sub'ektlarini sanab o'tish.
- B. Soliq nazorati shakllarini tasniflash va farqlash.
- C. Kameral va sayyor tekshiruvlarda, soliq auditida soliq to'lovchining ishtirok etish qoidalarini tushuntirish.
- D. Soliq tekshiruvi materiallarini ko'rib chiqish tartibini ta'riflash.
- E. Soliq tekshiruvlari va boshqa soliq nazorati choralarning huquqiy oqibatlarini tushuntirish.
- F. Soliq tekshiruvlari natijalari bo'yicha soliq organlari qarorlari ustidan shikoyat qilish qoidalarini va ularni bajarish tartibini tushuntirish.

2.5-mavzu. Soliqqa oid huquqbuzarliklar, ularni sodir etganlik uchun javobgarlik

Ushbu mavzuni o'zlashtirgandan so'ng nomzodlar quyidagilarni bajara olishi kerak:

- A. Soliqqa oid huquqbuzarliklar uchun javobgarlikka tortish shartlarini, shu jumladan da'vo qilish muddatlarini ta'riflash.
- B. Moliyaviy sanksiyalar va ma'muriy jazolarni farqlash va tushuntirish.
- C. Soliqqa oid huquqbuzarliklar turlarini va ularni sodir etganlik uchun javobgarlikni tasniflash va ta'riflash.
- D. Soliqqa oid huquqbuzarliklar uchun javobgarlikni yengillashtiruvchi va og'irlashtiruvchi omillarni ta'riflash.

3-bo'lim. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i (JSHDS)

3.1-mavzu. Soliq to'lovchilar va soliq agentlari

Ushbu mavzuni o'zlashtirgandan so'ng nomzodlar quyidagilarni bajara olishi kerak:

- A. Kim soliq to'lovchi ekanligini aniqlash.
- B. Rezident va norezident tushunchalarini farqlash.
- C. Soliq agenti majburiyatlari kimga yuklanishini tushuntirish va uning funksiyalarini ta'riflash.

3.2-mavzu. Soliq ob'ekti va soliq bazasi

Ushbu mavzuni o'zlashtirgandan so'ng nomzodlar quyidagilarni bajara olishi kerak:

- A. Soliq ob'ektini aniqlash.
- B. Jismoniy shaxslar – rezidentlar va jismoniy shaxslar – norezidentlar uchun soliq bazasini hisoblab chiqarish.
- C. Soliq solish maqsadida daromad olish sanasini identifikatsiya qilish.
- D. Jami daromad tarkibiga kiritiladigan daromad turlarini farqlash, ularni jami daromadga kiritilmaydigan daromadlardan ajratish.

3.3-mavzu. Soliq agentlarining soliq to'lovchining daromadi hisoblanmaydigan xarajatlari. Soliq imtiyozlari

Ushbu mavzuni o'zlashtirgandan so'ng nomzodlar quyidagilarni bajara olishi kerak:

- A. Soliq to'lovchining daromadi sifatida qaralmaydigan soliq agentlarining xarajatlarini aniqlash.
- B. Soliq solinmaydigan daromadlarni farqlash va aniqlash.
- C. Soliq to'lashdan to'liq yoki qisman ozod qilingan jismoniy shaxslar toifalarini farqlash.
- D. Soliq chegirmalarini qo'llash.

3.4-mavzu. Jismoniy shaxslarga to'lanadigan barcha turdagi daromadlar bo'yicha soliq agenti tomonidan soliqning hisob-kitob qilinishi

Ushbu mavzuni o'zlashtirgandan so'ng nomzodlar quyidagilarni bajara olishi kerak:

- A. Mehnat shartnomalari bo'yicha ishlayotgan shaxslarning barcha turdagi daromadlaridan soliqni hisoblab chiqarish.
- B. Fuqarolik-huquqiy xususiyatdagi shartnomalar tuzilgan shaxslarga to'lovlardan soliqni hisoblab chiqarish.
- C. Jismoniy shaxslarning mulkiy daromadlaridan, shu jumladan dividendlardan soliqni hisoblab chiqarish.
- D. Rezidentlar va norezidentlar solig'ini hisob-kitob qilishdagi farqlarni bilishini namoyish etish.

3.5-mavzu. Hisobot taqdim etish va soliqni to'lash tartibi

Ushbu mavzuni o'zlashtirgandan so'ng nomzodlar quyidagilarni bajara olishi kerak:

- A. Soliq to'lash qoidalarini tushuntirish.
- B. Ortiqcha ushlab qolingani soliq summasini qaytarish qoidalarini tushunish.
- C. Soliq hisobotini tuzish va topshirish.

3.6-mavzu. Shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvarag'iga badallar

Ushbu mavzuni o'zlashtirgandan so'ng nomzodlar quyidagilarni bajara olishi kerak:

- A. Jamg'arib boriladigan pensiya tizimi va shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvarag'i nima ekanligini, kim jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti huquqiga ega ekanligini tushuntirish.
- B. Jamg'arib boriladigan pensiya badallari turlarini farqlash, majburiy va ixtiyoriy badallar o'rtasidagi farqni tushunish.
- C. Jismoniy shaxsni jamg'arib boriladigan pensiya tizimida ro'yxatga olish.
- D. Badallarni hisoblash va to'lash, ular bo'yicha hisobot taqdim etish.

3.7-mavzu. Yakka tartibdagi tadbirkorlar daromadlaridan soliq undirishning o'ziga xos xususiyatlari

Ushbu mavzuni o'zlashtirgandan so'ng nomzodlar quyidagilarni bajara olishi kerak:

- A. Qat'iy belgilangan miqdorda soliq to'lashga kim haqli ekanligini aniqlash.
- B. Qat'iy belgilangan miqdorda soliq to'lashda soliq ob'ektini aniqlash.
- C. Soliqni hisoblab chiqarish.
- D. Daromadlar va xarajatlar hisobi registrlarini yuritish tartibini tushuntirish.
- E. Soliq hisobotini tuzish va taqdim etish.
- F. Soliqni to'lash.

4-bo'lim. Ijtimoiy soliq

4.1-mavzu. Soliq to'lovchilar

Ushbu mavzuni o'zlashtirgandan so'ng nomzodlar quyidagilarni bajara olishi kerak:

- A. Soliq to'lovchilarni - yuridik shaxslarni aniqlash.
- B. Soliq to'lovchilarni - jismoniy shaxslarni aniqlash.

4.2-mavzu. Umumiy tartibda soliqni hisob-kitob qilish

Ushbu mavzuni o'zlashtirgandan so'ng nomzodlar quyidagilarni bajara olishi kerak:

- A. Soliq ob'ektini va soliq ob'ekti hisoblanmaydigan mehnatga haq to'lash xarajatlarini identifikatsiya qilish.
- B. Soliq bazasini aniqlash.
- C. Umumiy tartibda soliqni hisoblab chiqarish.

4.3-mavzu. Hisobot taqdim etish va soliqni to'lashning umumiy tartibi

Ushbu mavzuni o'zlashtirgandan so'ng nomzodlar quyidagilarni bajara olishi kerak:

- A. Umumiy tartibda soliq bo'yicha hisobot tuzish va taqdim etish.
- B. Umumiy tartibda soliqni to'lash.

5-bo'lim. Aylanmadan olinadigan soliq

5.1-mavzu. Soliq to'lovchilar

Ushbu mavzuni o'zlashtirgandan so'ng nomzodlar quyidagilarni bajara olishi kerak:

- A. Soliq to'lovchilarni aniqlash, soliq to'lash huquqiga ega bo'lmagan tadbirkorlik sub'ektlarini farqlash.
- B. Soliq to'lashga o'tish tartibini ta'riflash.
- C. QQS va foyda solig'ini to'lashga majburiy va ixtiyoriy o'tish shartlari va tartibini aniqlash.

5.2-mavzu. Soliqni hisob-kitob qilish

Ushbu mavzuni o'zlashtirgandan so'ng nomzodlar quyidagilarni bajara olishi kerak:

- A. Soliq ob'ektini identifikatsiya qilish va soliq bazasini aniqlash.
- B. Soliq bazasini kamaytiradigan chegirmalar va xarajatlarni aniqlash.
- C. Daromadlarga tuzatish kiritish holatlarini farqlash.
- D. Soliqni hisoblab chiqarish.

5.3-mavzu. Hisobot taqdim etish va soliqni to'lash tartibi

Ushbu mavzuni o'zlashtirgandan so'ng nomzodlar quyidagilarni bajara olishi kerak:

- A. Soliq bo'yicha hisobot tuzish va topshirish.
- B. Soliqni to'lash.

6-bo'lim. Qo'shilgan qiymat solig'i (QQS)

6.1-mavzu. Soliq to'lovchilar va soliq agentlari

Ushbu mavzuni o'zlashtirgandan so'ng nomzodlar quyidagilarni bajara olishi kerak:

- A. Boshqa soliq solish tizimini tanlash huquqsiz soliq to'lashga majbur bo'lgan tadbirkorlik sub'ektlarini farqlagan holda soliq to'lovchilarni aniqlash.
- B. Soliq to'lovchi sifatida hisobga qo'yish tartibini tushuntirish.
- C. Soliq agenti majburiyatlari kimga yuklanishini tushuntirish.

6.2-mavzu. Soliq ob'ekti va tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilish joyini aniqlash

Ushbu mavzuni o'zlashtirgandan so'ng nomzodlar quyidagilarni bajara olishi kerak:

- A. Soliq solish ob'ektini identifikatsiya qilish, «realizatsiya qilish» va «realizatsiya qilish bo'yicha aylanma» tushunchalarini farqlash, O'zbekistonga tovarlar olib kirishda soliq solish ob'ektini aniqlashning o'ziga xos xususiyatlarini tushuntirish.
- B. Realizatsiya qilish bo'yicha aylanma hisoblanadigan operatsiyalarni, shu jumladan mulk huquqining o'tishi bilan bog'liq bo'lmagan operatsiyalarni aniqlash.
- C. Tovarlarni (xizmatlarni) tekin berish bo'yicha qaysi operatsiyalar realizatsiya qilish bo'yicha aylanma hisoblanishini farqlash, belgilangan shart bajarilganda realizatsiya qilish bo'yicha aylanma deb tan olinadigan operatsiyalarni sanab o'tish.
- D. Turli operatsiyalarda realizatsiya qilish bo'yicha aylanma amalga oshirilgan sanani identifikatsiya qilish.
- E. Tovarlarni va xizmatlarni realizatsiya qilish joyini aniqlash.

6.3-mavzu. Imtiyozlar

Ushbu mavzuni o'zlashtirgandan so'ng nomzodlar quyidagilarni bajara olishi kerak:

- A. Realizatsiya qilishda soliq solishdan ozod qilingan tovarlar va xizmatlarni farqlash.
- B. Olib kirishda soliq solishdan ozod qilingan tovarlarni farqlash.

6.4-mavzu. Soliq bazasi va unga tuzatish kiritish holatlari

Ushbu mavzuni o'zlashtirgandan so'ng nomzodlar quyidagilarni bajara olishi kerak:

- A. Soliq bazasini aniqlashning umumiy qoidalarini tushuntirish.
- B. Uzoq muddatli shartnomalar, moliyaviy ijara (lizing) shartnomalari, vositachilik, transport ekspeditsiyasi, transportda tashish, qaytarish sharti bilan qayta ishlashga berilgan xom ashyodan mahsulot tayyorlash bo'yicha o'ziga xos xususiyatlarni hisobga olgan holda soliq bazasini hisoblab chiqarish.
- C. Import qilingan tovarlarni realizatsiya qilishda. tovarlarni berishni (xizmatlar ko'rsatishni) mehnatga haq to'lash va dividendlar to'lash hisobiga amalga oshirishda. o'z mahsulotidan (xizmatlaridan) o'z ehtiyojlari uchun foydalanishda, ularga qilingan xarajatlar foyda solig'ini hisoblashda chegirib tashlanmaydigan bo'lsa. aholidan sotib olingan avtomobillar va turar joy ko'chmas mulk ob'ektlarini qayta sotishda. realizatsiya qilish bo'yicha aylanmalari soliq solishdan ozod qilingan xizmatlarni olish huquqini beruvchi abonementlar, yo'llanmalar va boshqa hujjatlarni realizatsiya qilishda. vaucherlarni realizatsiya qilishda soliq bazasini aniqlash.
- D. Realizatsiya qilish joyi O'zbekiston bo'lgan tovarlarni (xizmatlarni) respublika soliq organlarida soliq to'lovchi sifatida ro'yxatga olinmagan chet el shaxslaridan sotib olishda, shuningdek davlat mulki bilan operatsiyalar bo'yicha soliq bazasini aniqlash.
- E. Tovarlarni to'liq yoki qisman qaytarish, buyurtmachining ko'rsatilgan xizmatlardan voz kechishi, bitim shartlarining o'zgarishi, chegirma taqdim etilishi holatlarida soliq bazasiga tuzatish kiritish.

6.5-mavzu. Soliqni hisobga olish va uning o'rnini qoplashning umumiy tartibi

Ushbu mavzuni o'zlashtirgandan so'ng nomzodlar quyidagilarni bajara olishi kerak:

- A. Hisobga olish qoidalarini tushuntirish.
- B. Realizatsiya qilish joyi O'zbekiston deb e'tirof etilmaydigan xizmatlar ko'rsatishda, soliq to'lovchi sifatida hisobga qo'yishda yoki imtiyozni bekor qilishda, komitent (ishonch bildiruvchi) – chet el shaxsi bilan komissiya (topshiriq) shartnomasi bo'yicha hisobga olish tartibini tushuntirish.
- C. Hisobga olinmaydigan soliq summasini aniqlash, tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilish bo'yicha soliq solinadigan va soliqdan ozod qilingan aylanmalar mavjud bo'lganda hisobga olish summasini hisoblab chiqarish.
- D. Soliq to'lovchi tomonidan hisobga olishga tuzatish kiritish, shuningdek soliq organlari tomonidan hisobga olishga tuzatish kiritish yoki bekor qilish holatlarini farqlash.
- E. Soliqning o'rnini qoplashning umumiy qoidalarini tushunish, qoplash uchun asos bo'ladigan hujjatlarni sanab o'tish.

6.6-mavzu. Soliqni hisob-kitob qilish, hisobot taqdim etish va uni to'lash

Ushbu mavzuni o'zlashtirgandan so'ng nomzodlar quyidagilarni bajara olishi kerak:

- A. Byudjetga to'lanishi lozim bo'lgan soliqni hisoblab chiqarish.
- B. Soliq hisobotini tuzish va topshirish.
- C. Soliqni to'lash qoidalarini tushuntirish.

7-bo'lim. Foyda solig'i

7.1-mavzu. Soliq to'lovchilar va soliq agentlari

Ushbu mavzuni o'zlashtirgandan so'ng nomzodlar quyidagilarni bajara olishi kerak:

- A. Kim soliq to'lovchi ekanligini aniqlash.
- B. Qaysi hollarda soliq agenti soliqni to'lashini tushuntirish.

7.2-mavzu. Soliq ob'ekti va soliq bazasi

Ushbu mavzuni o'zlashtirgandan so'ng nomzodlar quyidagilarni bajara olishi kerak:

- A. Soliq solish ob'ektini identifikatsiya qilish, yakka tartibdagi tadbirkor uchun o'ziga xos xususiyatlarni hisobga olgan holda soliq solish maqsadida foydani aniqlash.
- B. Soliq bazasini aniqlash.

7.3-mavzu. Jami daromad

Ushbu mavzuni o'zlashtirgandan so'ng nomzodlar quyidagilarni bajara olishi kerak:

- A. Jami daromadga kiritiladigan daromadlarni farqlash, soliq solish maqsadida va buxgalteriya hisobi maqsadida daromadni tan olishdagi farqlarni tushuntirish.
- B. Amortizatsiyalanadigan aktivlar va boshqa mol-mulkning chiqib ketishidan, mol-mulkni (xizmatlarni) tekin olishdan, uzoq muddatli shartnomalar bo'yicha, ilgari chegirib tashlangan xarajatlar yoki zararlarni qoplash tarzida olingan daromadni tan olish xususiyatlarini tushuntirish.
- C. Dividendlar, foizlar va kursdagi farq tarzidagi daromadlarga soliq solish xususiyatlarini tushunish.
- D. Soliq solishda hisobga olinmaydigan daromadlarni identifikatsiya qilish.

7.4-mavzu. Xarajatlar

Ushbu mavzuni o'zlashtirgandan so'ng nomzodlar quyidagilarni bajara olishi kerak:

- A. Qaysi xarajatlar iqtisodiy jihatdan asoslangan deb tan olinishini tushuntirish, soliq solish maqsadidagi va buxgalteriya hisobi maqsadidagi xarajatlarni farqlash.
- B. Amortizatsiya xarajatlari, shu jumladan investitsiyaviy chegirmani qo'llashda, amortizatsiyalanadigan aktivlarni ta'mirlash bo'yicha, QQS bo'yicha xarajatlar soliq hisobining o'ziga xos xususiyatlarini tushunish.
- C. Chegirib tashlanmaydigan xarajatlarni aniqlash.

7.5-mavzu. Soliq bazasiga tuzatish kiritish. Zararlarni kelgusi davrlarga o'tkazish

Ushbu mavzuni o'zlashtirgandan so'ng nomzodlar quyidagilarni bajara olishi kerak:

- A. Tovarlarni to'liq yoki qisman qaytarish yoki buyurtmachining unga ko'rsatilgan xizmatlardan voz kechishi, bitim shartlarining o'zgarishi, narxning o'zgarishi, xaridor tomonidan chegirmaning qo'llanilishi holatlarida daromadlar va xarajatlarga tuzatish kiritish tartibini tushuntirish.
- B. Zararlarni kelgusi davrlarga o'tkazish qoidalarini tushunish.

7.6-mavzu. Soliqni hisoblash, hisobot taqdim etish va uni to'lash

Ushbu mavzuni o'zlashtirgandan so'ng nomzodlar quyidagilarni bajara olishi kerak:

- A. Soliqni hisoblab chiqarish.
- B. Soliq hisobotini tuzish va topshirish.
- C. Soliqni to'lash qoidalarini tushuntirish.

7.7-mavzu. Yakka tartibdagi tadbirkorlar daromadlariga soliq solishning o'ziga xos xususiyatlari

Ushbu mavzuni o'zlashtirgandan so'ng nomzodlar quyidagilarni bajara olishi kerak:

- A. Soliq solinadigan daromadlar va chegirib tashlanadigan xarajatlar hisobini yuritish.
- B. Soliq solishda hisobga olinmaydigan daromatlarni farqlash.
- C. Soliqni hisoblab chiqarish, hisobot tuzish va topshirish, soliqni to'lash.

8-bo'lim. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq

8.1-mavzu. Soliq to'lovchilar

Ushbu mavzuni o'zlashtirgandan so'ng nomzodlar quyidagilarni bajara olishi kerak:

- A. O'zbekistonning rezidenti va norezidenti bo'lgan yuridik shaxslar – soliq to'lovchilarni aniqlash.
- B. Ko'chmas mulk egasining joylashgan joyini aniqlashning imkoni bo'lmasa, moliyaviy ijarada (lizingda) soliqni to'lovchilarni aniqlash.

8.2-mavzu. Soliqni hisob-kitob qilish

Ushbu mavzuni o'zlashtirgandan so'ng nomzodlar quyidagilarni bajara olishi kerak:

- A. Soliq solish ob'ektlarini identifikatsiya qilish va soliq bazasini aniqlash.
- B. Soliq imtiyozlaridan foydalanish.
- C. Soliqni hisoblab chiqarish.

8.3-mavzu. Hisobot taqdim etish va soliqni to'lash tartibi

Ushbu mavzuni o'zlashtirgandan so'ng nomzodlar quyidagilarni bajara olishi kerak:

- A. Soliq bo'yicha ma'lumotnoma va hisobot tuzish hamda topshirish.
- B. Soliqni to'lash.

9-bo'lim. Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i

9.1-mavzu. Soliq to'lovchilar

Ushbu mavzuni o'zlashtirgandan so'ng nomzodlar quyidagilarni bajara olishi kerak:

- A. O'zbekistonning rezidenti va norezidenti bo'lgan yuridik shaxslar – soliq to'lovchilarni aniqlash.
- B. Ko'chmas mulkni ijaraga, shu jumladan moliyaviy ijaraga (lizingga) berishda, yer uchastkasidan birgalikda foydalanishda soliqni to'lovchilarni aniqlash.

9.2-mavzu. Soliqni hisob-kitob qilish

Ushbu mavzuni o'zlashtirgandan so'ng nomzodlar quyidagilarni bajara olishi kerak:

- A. Soliq solish ob'ektini aniqlash va soliq bazasini aniqlash.
- B. Soliq imtiyozlaridan foydalanish.
- C. Soliqni hisoblab chiqarish.

9.3-mavzu. Hisobot taqdim etish va soliqni to'lash tartibi

Ushbu mavzuni o'zlashtirgandan so'ng nomzodlar quyidagilarni bajara olishi kerak:

- A. Soliq bo'yicha ma'lumotnoma va hisobot tuzish hamda topshirish.
- B. Soliqni to'lash.

10-bo'lim. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq

10.1-mavzu. Soliq to'lovchilar

Ushbu mavzuni o'zlashtirgandan so'ng nomzodlar quyidagilarni bajara olishi kerak:

- A. O'zbekistonning rezidenti va norezidenti bo'lgan yuridik shaxslar – soliq to'lovchilarni aniqlash.
- B. Yakka tartibdagi tadbirkorlar bo'lgan soliq to'lovchilarni aniqlash.

10.2-mavzu. Soliqni hisob-kitob qilish

Ushbu mavzuni o'zlashtirgandan so'ng nomzodlar quyidagilarni bajara olishi kerak:

- A. Soliq solish ob'ektini identifikatsiya qilish va soliq bazasini aniqlash.
- B. Soliqni hisoblab chiqarish.

10.3-mavzu. Hisobot taqdim etish va soliqni to'lash tartibi

Ushbu mavzuni o'zlashtirgandan so'ng nomzodlar quyidagilarni bajara olishi kerak:

- A. Soliq bo'yicha ma'lumotnoma va hisobot tuzish hamda topshirish.
- B. Soliqni to'lash.

VI. Baholanadigan bilim va ko'nikmalar mavzulari bo'yicha huquqiy hujjatlar

«Soliq solish asoslari» («Soliqlar va soliq solish» fanining 1-darajasi) imtihoniga tayyorgarlik ko'rishda quyidagi huquqiy hujjatlardan foydalanish tavsiya etiladi:

- O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi (1-3, 4 (35, 37, 39, 40, 50-53-m.dan tashqari), 6, 7, 9, 10 (91-95-m.dan tashqari), 11, 13, 17-19, 27, 28, 31, 32, 33 (245-m.dan tashqari), 34 (251, 253-m.dan tashqari), 35, 37, 39, 42, 43 (302-m.dan tashqari), 44 (311, 312, 315, 316-m.dan tashqari), 45 (318, 319, 321-331-m.dan tashqari), 46 (334-336-m. dan tashqari), 47 (341-m. dan tashqari), 48, 50-59, 61, 63, 66-boblar).
- O'zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksi (289, 290, 295-m.)
- O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi (164, 174, 175, 175³, 179²-m.).
- «Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida»gi Qonun.
- «Fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti to'g'risida»gi Qonun.
- Vazirlar Mahkamasining «Fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida»gi Qarori.
- Ish beruvchilar tomonidan fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga majburiy badallarni qo'shish va to'lash tartibi to'g'risidagi Nizom.
- Xalq banki tomonidan fuqarolarni jamg'arib boriladigan pensiya tizimida shaxsan hisobga olishni yuritish tartibi to'g'risidagi Nizom.
- Qo'shilgan qiymat solig'i summasi o'rnini qoplash tartibi to'g'risidagi Nizom.
- Soliq to'lovchilarni qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilari sifatida maxsus ro'yxatdan o'tkazish tartibi to'g'risidagi Nizom.
- Qo'shilgan qiymat solig'i bazasini tovarlarning (xizmatlarning) bozor qiymatidan kelib chiqib aniqlash tartibi to'g'risidagi Nizom.

В.ТХ

Солиқ солиш асослари

2026 йилда имтиҳонга тайёргарлик
учун ўқув-услубий қўлланма



Мундарижа

I. Умумий қоидалар	3
II. Дастурнинг мақсади	7
III. Дастурнинг бўлимлари ва мавзулари.....	8
IV. Имтиҳон формати.....	11
V. Батафсил ўқув режаси ва ўқув мақсадлари	12
VI. Баҳоланадиган билим ва кўникмалар мавзулари бўйича ҳуқуқий ҳужжатлар.....	23

В.ТХ Солиқ солиш асослари

2026 йилда имтиҳонга тайёргарлик учун ўқув-услубий қўлланма

I. Умумий қоидалар

Ўзбекистон сертификатланган молия мутахассислари уюшмаси (ACFP) «Солиқлар ва солиқ солиш» фани бўйича имтиҳонга тайёргарлик дастурини ишлаб чиқди.

Солиқлар ва солиқ солиш бўйича билим ва кўникмалар молия мутахассисига қуйидагилар учун зарур:

- Юридик шахслар ва якка тартибдаги тадбиркорларга, шунингдек якка тартибдаги тадбиркор бўлмаган жисмоний шахсларнинг даромадларига солиқ меъёрларига мувофиқ солиқ солиш.
- Имтиёзлар ва преференциялардан фойдаланган ҳолда солиқ тўловчиларнинг солиқ мажбуриятларини қонуний йўл билан мақбуллаштириш.
- Жарималар ва юридик муаммоларга олиб келиши мумкин бўлган хатолар ва ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш.
- Иш берувчи ёки буюртмачига бизнес қарорларининг солиқ оқибатлари бўйича маслаҳат бериш.
- Талаб қилинадиган ахборот ва ҳужжатларни тақдим этган ҳолда солиқ органлари билан самарали ҳамкорлик қилиш.
- Солиқ органлари билан низоларда солиқ тўловчиларнинг қонуний молиявий манфаатларини ҳимоя қилиш.

Молия мутахассиси эгаллаши керак бўлган солиқ мавзулари кенг ва хилма-хилдир. Баъзи солиқлар мураккаб бўлиб, батафсилроқ ўрганишни талаб қилади. Шунинг учун «Солиқлар ва солиқ солиш» имтиҳони икки босқичда ўтказилади. Бу номзодларга қуйидаги имкониятларни беради:

- Солиқ солишнинг назарий ва амалий жиҳатларини ўзлаштириш учун етарли вақт ва куч ажратиш.
- Молия мутахассислари ишлайдиган солиқ доирасини чуқурроқ ва тўлиқроқ тушуниш ва бу билимларни қўллаш кўникмаларини шакллантириш.
- Юридик ва жисмоний шахсларга солиқ солишни батафсил ўрганиш.
- Солиқ солиш соҳасидаги билим ва кўникмаларини яхшироқ исботлаш.
- Билим ва кўникмаларни амалиётда ишончлироқ қўллаш.

В.ТХ Солиқ солиш асослари имтиҳони CFS – Certified Finance Specialist базавий малакаси ва/ёки CePNUz – Ўзбекистон Республикасининг солиқлар ва ҳуқуқ бўйича базавий дипломини олиш учун топширилади.


CFS малакasi ва CePNUz дипломининг тузилиши

CFS базавий малакасини олиш учун номзод В.ТХ Солиқ солиш асослари имтиҳонидан ташқари, қуйидаги имтиҳонларни топшириши керак:

- В.FR Молиявий ҳисоб ва ҳисобот асослари
- В.FM Молияни бошқариш асослари
- В.AU Аудит ва ишончни таъминлайдиган топшириқлар асослари
- В.MA Бошқарув ҳисоби асослари
- В.OO Ташкилот ва унинг фаолияти
- В.LW Ҳуқуқ асослари
- В.PA Амалий бухгалтерия асослари

Шунингдек, «Ахлоқ ва профессионал ҳулқ асослари» (В.ЕР) курсидан ўтиш зарур.

CePNUz дипломини олиш учун номзод В.ТХ Солиқ солиш асослари имтиҳонидан ташқари, В.LW Ҳуқуқ асослари имтиҳонини топшириши керак.



ACFP малака даражалари тизими

ACFP малакалари тўртта изчил даража бўйича туркумланган:

- А даражаси (бошланғич)
- В даражаси (базавий)
- С даражаси (профессионал)
- D даражаси (илғор)


Ўқишни билим ва кўникмаларингизга энг мувофиқ келадиган даражадан бошлаш тавсия этилади. А даражасидан бошлаш мажбурий талаб эмас. Мос келадиган даражани танлаш жорий малака ва профессионал тажрибани ўзини ўзи баҳолашга асосланиши керак.



В.ТХ имтиҳонининг АСФР тизимидаги ўрни

В.ТХ имтиҳони молия мутахассислари учун солиқ солишни босқичма-босқич ўрганишнинг базавий поғонаси ҳисобланади ва қуйидагича топширилиши мумкин:

- CFS малакаси (В даражаси) ва/ёки CePNUz дипломи доирасида мустақил имтиҳон сифатида.
- ACFP С даражаси малакаси ва/ёки DiPNUz дипломининг С.ТХ Солиқ солишнинг ўзига хос жиҳатлари имтиҳонини топширишдан олдин ўтиши керак бўлган «Солиқлар ва солиқ солиш» фанининг биринчи поғонаси сифатида.
- ACCA ва ACFP Молия ва бизнесни бошқариш халқаро дипломи имтиҳонларига кириш ҳуқуқига эга бўлишни истаган шахслар учун мажбурий имтиҳон сифатида.



Таълим натижалари

В.ТХ Солиқ солиш асослари имтиҳони дастурини ўзлаштириш натижасида номзодлар қуйидагиларга лаёқатли бўлишади:

- Солиқ солишнинг базавий концепциялари ва тамойилларини тушуниш.
- Бизнес муҳитида солиқлар турлари ва солиқ жавобгарлигини фарқлаш.
- Профессионал фаолиятнинг намунавий вазиятларида қўлланиладиган солиқ меъёрларини аниқлаш.
- Асосий солиқ ҳужжатларини таҳлил қилиш.
- Асосий солиқ операцияларига қонунчилик талабларини қўллаш.

Ўқув юкламаси

Умуман олганда, «Солиқлар ва солиқ солиш» фани бўйича иккита имтиҳонга тайёргарлик кўриш учун камида 480 соат керак бўлади:

	Ўқув фаолияти тури	«Солиқлар ва солиқ солиш» фани бўйича академик соатлар сони		
		Тайёргарликнинг 1-босқичи В.ТХ Солиқ солиш асослари	Тайёргарликнинг 2-босқичи С.ТХ Солиқ солишнинг ўзига хос жиҳатлари	Жами
1	Маърузалар	60	60	120
2	Амалий машғулотлар	40	40	80
3	Мустақил иш	140	140	280
	Жами	240	240	480

АССА аккредитацияси

В.ТХ Солиқ солиш асослари ва С.ТХ Солиқ солишнинг ўзига хос жиҳатлари имтиҳонлари дастури АССА (Association of Chartered Certified Accountants) томонидан аккредитация қилинган. Бу қуйидагиларни англатади:

- У Молия ва бизнесни бошқариш халқаро дипломининг Солиқлар имтиҳони дастурига камида 80 % мувофиқ келади.
- Бу имтиҳон АСФПнинг иккита имтиҳонини (В.ТХ ва С.ТХ) муваффақиятли топширганда АССА томонидан ҳисобга олинади.

II. Дастурнинг мақсади

В.ТХ Солиқ солиш асослари («Солиқлар ва солиқ солиш» фанининг 1-даражаси) имтиҳонига тайёргарлик дастурининг мақсади номзодларда Ўзбекистонда солиқ солиш ва солиқ маъмуриятчилигининг умумий қоидаларини тушуниш, жисмоний шахслар даромадлари, қўшилган қиймат, жами даромад ва фойда, шунингдек мол-мулк, ер ва сувга солиқ солиш кўникмаларини шакллантиришдир.

Дастурни ўзлаштириш номзодларга қуйидаги имкониятларни беради:

- Солиқ тизимининг асосий элементларини, шу жумладан солиқлар, солиқ тўловчилар ва солиқ агентларини таърифлаш.
- Солиқ маъмуриятчилиги институтлари ва воситаларини тушунтириш.
- Меҳнат, мулк ва тадбиркорликдан олинadиган жисмоний шахслардан олинadиган даромад солиғини тартибга солувчи меъёрларни тушунтириш ва қўллаш.
- Айланмадан олинadиган солиқни тартибга солувчи меъёрларни тушунтириш ва қўллаш.
- Қўшилган қиймат солиғини тартибга солувчи меъёрларни тушунтириш ва қўллаш.
- Фойда солиғини тартибга солувчи меъёрларни тушунтириш ва қўллаш.
- Юридик шахслардан олинadиган мол-мулк, ер ва сув солиқларини тартибга солувчи меъёрларни тушунтириш ва қўллаш.

III. Дастурнинг бўлимлари ва мавзулари

В.ТХ Солиқ солиш асослари имтиҳони дастури қуйидаги бўлимлар ва мавзуларни ўз ичига олади:

1-бўлим. Ўзбекистоннинг солиқ тизими

- 1.1. Солиқлар тўғрисида умумий қоидалар
- 1.2. Солиқ тўғрисидаги қонунчилик
- 1.3. Солиқ тўловчилар ва солиқ агентлари

2-бўлим. Ўзбекистоннинг солиқ маъмуриятчилиги тизими

- 2.1. Солиқ маъмуриятчилиги бўйича умумий қоидалар
- 2.2. Солиқ ҳисоби ва солиқ солиш мақсадидаги ҳисоб сиёсати. Солиқ ҳисоботи
- 2.3. Солиқ мажбуриятини бажариш
- 2.4. Солиқ назорати
- 2.5. Солиққа оид ҳуқуқбузарликлар, уларни содир этганлик учун жавобгарлик

3-бўлим. Жисмоний шахслардан олинадиган даромад солиғи (ЖШДС)

- 3.1. Солиқ тўловчилар ва солиқ агентлари
- 3.2. Солиқ объекти ва солиқ базаси
- 3.3. Солиқ агентларининг солиқ тўловчининг даромади ҳисобланмайдиган харажатлари. Солиқ имтиёзлари
- 3.4. Жисмоний шахсларга тўланадиган барча турдаги даромадлар бўйича солиқ агенти томонидан солиқнинг ҳисоб-китоб қилиниши
- 3.5. Ҳисобот тақдим этиш ва солиқни тўлаш тартиби
- 3.6. Шахсий жамғариб бориладиган пенсия ҳисобварағига бадаллар
- 3.7. Якка тартибдаги тадбиркорлар даромадларидан солиқ ундиришнинг ўзига хос хусусиятлари

4-бўлим. Ижтимоий солиқ

- 4.1. Солиқ тўловчилар
- 4.2. Умумий тартибда солиқни ҳисоб-китоб қилиш
- 4.3. Ҳисобот тақдим этиш ва солиқ тўлашнинг умумий тартиби

5-бўлим. Айланмадан олинадиган солиқ

- 5.1. Солиқ тўловчилар
- 5.2. Солиқни ҳисоб-китоб қилиш
- 5.3. Ҳисобот тақдим этиш ва солиқни тўлаш тартиби

6-бўлим. Қўшилган қиймат солиғи (ҚҚС)

- 6.1. Солиқ тўловчилар ва солиқ агентлари
- 6.2. Солиқ объекти ва товарларни (хизматларни) реализация қилиш жойини аниқлаш
- 6.3. Имтиёзлар
- 6.4. Солиқ базаси ва унга тузатиш киритиш ҳолатлари
- 6.5. Солиқни ҳисобга олиш ва унинг ўрнини қоплашнинг умумий тартиби
- 6.6. Солиқни ҳисоб-китоб қилиш, ҳисобот тақдим этиш ва уни тўлаш

7-бўлим. Фойда солиғи

- 7.1. Солиқ тўловчилар ва солиқ агентлари
- 7.2. Солиқ объекти ва солиқ базаси
- 7.3. Жами даромад
- 7.4. Харажатлар
- 7.5. Солиқ базасига тузатиш киритиш. Зарарларни келгуси даврларга ўтказиш
- 7.6. Солиқни ҳисоб-китоб қилиш, ҳисобот тақдим этиш ва тўлаш
- 7.7. Якка тартибдаги тадбиркорлар даромадларига солиқ солишнинг ўзига хос хусусиятлари

8-бўлим. Юридик шахсларнинг мол-мулкига солинадиган солиқ

- 8.1. Солиқ тўловчилар
- 8.2. Солиқни ҳисоб-китоб қилиш
- 8.3. Ҳисобот тақдим этиш ва солиқни тўлаш тартиби

9-бўлим. Юридик шахслардан олинадиган ер солиғи

- 9.1. Солиқ тўловчилар
- 9.2. Солиқни ҳисоб-китоб қилиш
- 9.3. Ҳисобот тақдим этиш ва солиқни тўлаш тартиби

10-бўлим. Сув ресурсларидан фойдаланганлик учун солиқ

- 10.1. Солиқ тўловчилар
- 10.2. Солиқни ҳисоб-китоб қилиш
- 10.3. Ҳисобот тақдим этиш ва солиқни тўлаш тартиби

IV. Имтиҳон формати

В. ТХ Солиқ солиш асослари («Солиқлар ва солиқ солиш» фанининг 1-даражаси) фани бўйича имтиҳон компьютерда тест форматида ўтказилади. Имтиҳон давомийлиги – 3 соат. Имтиҳонда Ўзбекистон қонунчилиги маълумотлар базасидан фойдаланишга рухсат берилади.

Имтиҳон икки бўлимдан иборат. А бўлими тест форматидаги 35 та саволдан иборат бўлиб, уларнинг ҳар бири бир хил вазнга эга (2 балл). А бўлимининг умумий вазни 70 баллни ташкил этади. А бўлими саволлари имтиҳон дастурининг исталган бўлимига тааллуқли бўлиши мумкин.

Имтиҳоннинг В бўлими ҳар бири 15 баллдан 2 та сценарийдан иборат. Ҳар бир сценарий тест форматидаги саволлар гуруҳи билан бирга берилади. В бўлимининг умумий вазни 30 баллни ташкил этади.

Номзод олиши мумкин бўлган энг юқори балл – 100 балл. Ўтиш бали - 100 баллдан 60 балл.

Эътибор беринг!

2025 йил имтиҳонларининг тест ва топшириқлари 2024 йил 1 декабргача расман кучга кирган меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатларга асосланган.

V. Батафсил ўқув режаси ва ўқув мақсадлари

1-бўлим. Ўзбекистоннинг солиқ солиш тизими

1.1-мавзу. Солиқлар тўғрисида умумий қоидалар

Ушбу мавзунини ўзлаштиргандан сўнг номзодлар қуйидагиларни бажара олиши керак:

- A. Солиқларнинг моҳияти ва функцияларини, солиқларнинг иқтисодиёт, меҳнат, бизнес, истеъмолчиларга таъсирини тушунтириш.
- B. Солиқлар ва йиғимларни фарқлаш, солиқларни таснифлаш.
- C. Ўзбекистондаги солиқ ва божхона тўловларини санаб ўтиш.
- D. Солиқ солиш тамойилларини таърифлаш.
- E. Турли солиқ режимларини таққослаш.
- F. Солиқ элементларини таърифлаш.

1.2-мавзу. Солиқ тўғрисидаги қонунчилик

Ушбу мавзунини ўзлаштиргандан сўнг номзодлар қуйидагиларни бажара олиши керак:

- A. Солиқ тўғрисидаги қонунчиликни ташкил этувчи ҳуқуқий ҳужжатлар турларини санаб ўтиш ва уларнинг иерархиясини билиш.
- B. Солиқ кодексининг тузилишида мўлжал олиш (бўлим, боб, модда, қисм, хатбоши).
- C. Солиқлар бўйича ҳуқуқий, расмий ва норасмий ахборотни фарқлаш ва қўллаш.
- D. Солиқ тўғрисидаги қонунчиликнинг вақт бўйича амал қилишини тушунтириш.
- E. Солиқ тўғрисидаги қонунчилик билан белгиланган ҳисоблаш муддатнинг бошланиши ва тугашини аниқлаш.

1.3-мавзу. Солиқ тўловчилар ва солиқ агентлари

Ушбу мавзунини ўзлаштиргандан сўнг номзодлар қуйидагиларни бажара олиши керак:

- A. Солиқ тўловчиларни таснифлаш ва таърифлаш, юридик ва жисмоний шахсларни уларнинг солиқ мақоми бўйича фарқлаш.
- B. Солиқ тўловчиларнинг ҳуқуқ ва мажбуриятларини таърифлаш.
- C. Солиқ муносабатларида вакиллик институтини тушунтириш.
- D. Солиқ агентларининг ҳуқуқ ва мажбуриятларини тушунтириш.

2-бўлим. Ўзбекистоннинг солиқ маъмуриятчилиги тизими

2.1-мавзу. Солиқ маъмуриятчилиги бўйича умумий қоидалар

Ушбу мавзунини ўзлаштиргандан сўнг номзодлар қуйидагиларни бажара олиши керак:

- A. Солиқ маъмуриятчилиги тушунчаси ва унинг функцияларини тушунтириш.
- B. Солиқ тўловчилар ва солиқ объектларини рўйхатга олишнинг умумий қоидаларини таърифлаш.
- C. Солиқ маъмуриятчилиги субъекти сифатида солиқ органларининг тузилмаси ва ваколатларини таърифлаш.
- D. Солиқ органлари ва солиқ тўловчилар ўртасида ахборот алмашиш тартиби ва шакллари, хабарларга жавоб бериш муддатларини тушунтириш.
- E. Солиқ тўловчининг шахсий кабинети воситаларини таърифлаш ва ундан фойдаланиш.
- F. Солиқ сири ҳисобланмайдиган солиқ тўловчи ҳақидаги ахборотларни фарқлаш, солиқ сирини ошкор қилишга нима киришини тушуниш.
- G. Солиқ маъмуриятчилигини рақамлаштириш мақсадларини тушунтириш.
- H. Солиқ маъмуриятчилигининг электрон хизматлари, ахборот тизимлари ва воситаларини тушунтириш ва улардан фойдаланиш – онлайн-ККТ, электрон ҳисобварақ-фактуралар, маҳсулот ва хизматларнинг идентификация кодлари, ижара шартномаларини рўйхатга олиш, таҳлика-таҳлил тизими.

2.2-мавзу. Солиқ ҳисоби ва солиқ солиш мақсадидаги ҳисоб сиёсати. Солиқ ҳисоботи

Ушбу мавзунини ўзлаштиргандан сўнг номзодлар қуйидагиларни бажара олиши керак:

- A. Солиқ солиш мақсадида ҳисобни тушунтириш ва юритиш, молиявий ва солиқ ҳисоби ўртасидаги фарқни кўрсатиш.
- B. Солиқ солиш мақсадидаги ҳисоб ҳужжатлари таркибини, уларни тузиш ва сақлаш қоидаларини таърифлаш.
- C. Солиқ ҳисоби сиёсатининг аҳамиятини тушунтириш. уни ишлаб чиқиш, тасдиқлаш ва унга ўзгартиришлар киритиш тартиб-таомилларини таърифлаш. солиқ ҳисоби сиёсатида нима акс эттирилиши кераклигини аниқлаш.
- D. Алоҳида-алоҳида ҳисобни тушунтириш ва юритиш.
- E. Солиқ ҳисоботини, шу жумладан аниқлаштирилган солиқ ҳисоботини тузиш ва уни солиқ органларига тақдим этиш.

2.3-мавзу. Солиқ мажбуриятини бажариш

Ушбу мавзунини ўзлаштиргандан сўнг номзодлар қуйидагиларни бажара олиши керак:

- A. Солиқ мажбуриятини бажариш тартиби ва муддатларини, шу жумладан даъво қилиш муддатларини, солиқ мажбуриятининг тугаш шартларини тушунтириш.
- B. Солиқларни тўлаш муддатларини ўзгартиришнинг умумий шартларини тушунтириш.

- C. Солиқларни тўлаш бўйича кечиктириш ва бўлиб-бўлиб тўлаш шартлари, тақдим этиш ва тугатиш тартибини таърифлаш.
- D. Солиқ мажбуриятининг бажарилиши қандай усуллар билан таъминланишини тушунтириш.

2.4-мавзу. Солиқ назорати

Ушбу мавзунини ўзлаштиргандан сўнг номзодлар қуйидагиларни бажара олиши керак:

- A. Солиқ назоратининг моҳиятини тушунтириш, унинг субъектларини санаб ўтиш.
- B. Солиқ назорати шакллари таснифлаш ва фарқлаш.
- C. Камерал ва сайёр текширувларда, солиқ аудитида солиқ тўловчининг иштирок этиш қоидаларини тушунтириш.
- D. Солиқ текшируви материалларини кўриб чиқиш тартибини таърифлаш.
- E. Солиқ текширувлари ва бошқа солиқ назорати чораларининг ҳуқуқий оқибатларини тушунтириш.
- F. Солиқ текширувлари натижалари бўйича солиқ органлари қарорлари ўстидан шикоят қилиш қоидаларини ва уларни бажариш тартибини тушунтириш.

2.5-мавзу. Солиққа оид ҳуқуқбузарликлар, уларни содир этганлик учун жавобгарлик

Ушбу мавзунини ўзлаштиргандан сўнг номзодлар қуйидагиларни бажара олиши керак:

- A. Солиққа оид ҳуқуқбузарликлар учун жавобгарликка тортиш шартларини, шу жумладан даъво қилиш муддатларини таърифлаш.
- B. Молиявий санкциялар ва маъмурий жазоларни фарқлаш ва тушунтириш.
- C. Солиққа оид ҳуқуқбузарликлар турларини ва уларни содир этганлик учун жавобгарликни таснифлаш ва таърифлаш.
- D. Солиққа оид ҳуқуқбузарликлар учун жавобгарликни енгиллаштирувчи ва оғирлаштирувчи омилларни таърифлаш.

3-бўлим. Жисмоний шахслардан олинадиган даромад солиғи (ЖШДС)

3.1-мавзу. Солиқ тўловчилар ва солиқ агентлари

Ушбу мавзунини ўзлаштиргандан сўнг номзодлар қуйидагиларни бажара олиши керак:

- A. Ким солиқ тўловчи эканлигини аниқлаш.
- B. Резидент ва норезидент тушунчаларини фарқлаш.
- C. Солиқ агенти мажбуриятлари кимга юкланишини тушунтириш ва унинг функцияларини таърифлаш.

3.2-мавзу. Солиқ объекти ва солиқ базаси

Ушбу мавзунини ўзлаштиргандан сўнг номзодлар қўйидагиларни бажара олиши керак:

- A. Солиқ объектини аниқлаш.
- B. Жисмоний шахслар – резидентлар ва жисмоний шахслар – норезидентлар учун солиқ базасини ҳисоблаб чиқариш.
- C. Солиқ солиш мақсадида даромад олиш санасини идентификация қилиш.
- D. Жами даромад таркибига киритиладиган даромад турларини фарқлаш, уларни жами даромадга киритилмайдиган даромадлардан ажратиш.

3.3-мавзу. Солиқ агентларининг солиқ тўловчининг даромади ҳисобланмайдиган харажатлари. Солиқ имтиёзлари

Ушбу мавзунини ўзлаштиргандан сўнг номзодлар қўйидагиларни бажара олиши керак:

- A. Солиқ тўловчининг даромади сифатида қаралмайдиган солиқ агентларининг харажатларини аниқлаш.
- B. Солиқ солинмайдиган даромадларни фарқлаш ва аниқлаш.
- C. Солиқ тўлашдан тўлиқ ёки қисман озод қилинган жисмоний шахслар тоифаларини фарқлаш.
- D. Солиқ чегирмаларини қўллаш.

3.4-мавзу. Жисмоний шахсларга тўланадиган барча турдаги даромадлар бўйича солиқ агенти томонидан солиқнинг ҳисоб-китоб қилиниши

Ушбу мавзунини ўзлаштиргандан сўнг номзодлар қўйидагиларни бажара олиши керак:

- A. Меҳнат шартномалари бўйича ишлаётган шахсларнинг барча турдаги даромадларидан солиқни ҳисоблаб чиқариш.
- B. Фуқаролик-ҳуқуқий хусусиятдаги шартномалар тузилган шахсларга тўловлардан солиқни ҳисоблаб чиқариш.
- C. Жисмоний шахсларнинг мулкӣ даромадларидан, шу жумладан дивидендлардан солиқни ҳисоблаб чиқариш.
- D. Резидентлар ва норезидентлар солиғини ҳисоб-китоб қилишдаги фарқларни билишини намоиш этиш.

3.5-мавзу. Ҳисобот тақдим этиш ва солиқни тўлаш тартиби

Ушбу мавзунини ўзлаштиргандан сўнг номзодлар қўйидагиларни бажара олиши керак:

- A. Солиқ тўлаш қоидаларини тушунтириш.
- B. Ортиқча ушлаб қолинган солиқ суммасини қайтариш қоидаларини тушуниш.
- C. Солиқ ҳисоботини тузиш ва топшириш.

3.6-мавзу. Шахсий жамғариб бориладиган пенсия ҳисобварағига бадаллар

Ушбу мавзунини ўзлаштиргандан сўнг номзодлар қўйидагиларни бажара олиши керак:

- A. Жамғариб бориладиган пенсия тизими ва шахсий жамғариб бориладиган пенсия ҳисобварағи нима эканлигини, ким жамғариб бориладиган пенсия таъминоти ҳуқуқига эга эканлигини тушунтириш.
- B. Жамғариб бориладиган пенсия бадаллари турларини фарқлаш, мажбурий ва ихтиёрий бадаллар ўртасидаги фарқни тушуниш.
- C. Жисмоний шахсни жамғариб бориладиган пенсия тизимида рўйхатга олиш.
- D. Бадалларни ҳисоблаш ва тўлаш, улар бўйича ҳисобот тақдим этиш.

3.7-мавзу. Якка тартибдаги тадбиркорлар даромадларидан солиқ ундиришнинг ўзига хос хусусиятлари

Ушбу мавзунини ўзлаштиргандан сўнг номзодлар қўйидагиларни бажара олиши керак:

- A. Қатъий белгиланган миқдорда солиқ тўлашга ким ҳақли эканлигини аниқлаш.
- B. Қатъий белгиланган миқдорда солиқ тўлашда солиқ объектини аниқлаш.
- C. Солиқни ҳисоблаб чиқариш.
- D. Даромадлар ва харажатлар ҳисоби регистрларини юритиш тартибини тушунтириш.
- E. Солиқ ҳисоботини тузиш ва тақдим этиш.
- F. Солиқни тўлаш.

4-бўлим. Ижтимоий солиқ

4.1-мавзу. Солиқ тўловчилар

Ушбу мавзунини ўзлаштиргандан сўнг номзодлар қўйидагиларни бажара олиши керак:

- A. Солиқ тўловчиларни - юридик шахсларни аниқлаш.
- B. Солиқ тўловчиларни - жисмоний шахсларни аниқлаш.

4.2-мавзу. Умумий тартибда солиқни ҳисоб-китоб қилиш

Ушбу мавзунини ўзлаштиргандан сўнг номзодлар қўйидагиларни бажара олиши керак:

- A. Солиқ объектини ва солиқ объекти ҳисобланмайдиган меҳнатга ҳақ тўлаш харажатларини идентификация қилиш.
- B. Солиқ базасини аниқлаш.
- C. Умумий тартибда солиқни ҳисоблаб чиқариш.

4.3-мавзу. Ҳисобот тақдим этиш ва солиқни тўлашнинг умумий тартиби

Ушбу мавзунини ўзлаштиргандан сўнг номзодлар қўйидагиларни бажара олиши керак:

- A. Умумий тартибда солиқ бўйича ҳисобот тузиш ва тақдим этиш.
- B. Умумий тартибда солиқни тўлаш.

5-бўлим. Айланмадан олинадиган солиқ

5.1-мавзу. Солиқ тўловчилар

Ушбу мавзунини ўзлаштиргандан сўнг номзодлар қўйидагиларни бажара олиши керак:

- A. Солиқ тўловчиларни аниқлаш, солиқ тўлаш ҳуқуқига эга бўлмаган тадбиркорлик субъектларини фарқлаш.
- B. Солиқ тўлашга ўтиш тартибини таърифлаш.
- C. ҚҚС ва фойда солиғини тўлашга мажбурий ва ихтиёрий ўтиш шартлари ва тартибини аниқлаш.

5.2-мавзу. Солиқни ҳисоб-китоб қилиш

Ушбу мавзунини ўзлаштиргандан сўнг номзодлар қўйидагиларни бажара олиши керак:

- A. Солиқ объектини идентификация қилиш ва солиқ базасини аниқлаш.
- B. Солиқ базасини камайтирадиган чегирмалар ва харажатларни аниқлаш.
- C. Саромадларга тузатиш киритиш ҳолатларини фарқлаш.
- D. Солиқни ҳисоблаб чиқариш.

5.3-мавзу. Ҳисобот тақдим этиш ва солиқни тўлаш тартиби

Ушбу мавзунини ўзлаштиргандан сўнг номзодлар қўйидагиларни бажара олиши керак:

- A. Солиқ бўйича ҳисобот тузиш ва топшириш.
- B. Солиқни тўлаш.

6-бўлим. Қўшилган қиймат солиғи (ҚҚС)

6.1-мавзу. Солиқ тўловчилар ва солиқ агентлари

Ушбу мавзунини ўзлаштиргандан сўнг номзодлар қўйидагиларни бажара олиши керак:

- A. Бошқа солиқ солиш тизимини танлаш ҳуқуқисиз солиқ тўлашга мажбур бўлган тадбиркорлик субъектларини фарқлаган ҳолда солиқ тўловчиларни аниқлаш.
- B. Солиқ тўловчи сифатида ҳисобга қўйиш тартибини тушунтириш.
- C. Солиқ агенти мажбуриятлари кимга юкланишини тушунтириш.

6.2-мавзу. Солиқ объекти ва товарларни (хизматларни) реализация қилиш жойини аниқлаш

Ушбу мавзунини ўзлаштиргандан сўнг номзодлар қуйидагиларни бажара олиши керак:

- A. Солиқ солиш объектини идентификация қилиш, «реализация қилиш» ва «реализация қилиш бўйича айланма» тушунчаларини фарқлаш, Ўзбекистонга товарлар олиб киришда солиқ солиш объектини аниқлашнинг ўзига хос хусусиятларини тушунтириш.
- B. Реализация қилиш бўйича айланма ҳисобланадиган операцияларни, шу жумладан мулк ҳуқуқининг ўтиши билан боғлиқ бўлмаган операцияларни аниқлаш.
- C. Товарларни (хизматларни) текин бериш бўйича қайси операциялар реализация қилиш бўйича айланма ҳисобланишини фарқлаш, белгиланган шарт бажарилганда реализация қилиш бўйича айланма деб тан олинadиган операцияларни санаб ўтиш.
- D. Турли операцияларда реализация қилиш бўйича айланма амалга оширилган санани идентификация қилиш.
- E. Товарлар ва хизматларни реализация қилиш жойини аниқлаш.

6.3-мавзу. Имтиёзлар

Ушбу мавзунини ўзлаштиргандан сўнг номзодлар қуйидагиларни бажара олиши керак:

- A. Реализация қилишда солиқ солишдан озод қилинган товарлар ва хизматларни фарқлаш.
- B. Олиб киришда солиқ солишдан озод қилинган товарларни фарқлаш.

6.4-мавзу. Солиқ базаси ва унга тузатиш киритиш ҳолатлари

Ушбу мавзунини ўзлаштиргандан сўнг номзодлар қуйидагиларни бажара олиши керак:

- A. Солиқ базасини аниқлашнинг умумий қоидаларини тушунтириш.
- B. Узоқ муддатли шартномалар, молиявий ижара (лизинг) шартномалари, воситачилик, транспорт экспедицияси, транспортда ташиш, қайтариш шarti билан қайта ишлашга берилган хом ашёдан маҳсулот тайёрлаш бўйича ўзига хос хусусиятларни ҳисобга олган ҳолда солиқ базасини ҳисоблаб чиқариш.
- C. Импорт қилинган товарларни реализация қилишда, товарларни беришни (хизматлар кўрсатишни) меҳнатга ҳақ тўлаш ва дивидендлар тўлаш ҳисобига амалга оширишда, ўз маҳсулотидан (хизматларидан) ўз эҳтиёжлари учун фойдаланишда, уларга қилинган харажатлар фойда солиғини ҳисоблашда чегириб ташланмайдиган бўлса, аҳолидан сотиб олинган автомобиллар ва турар жой кўчмас мулк объектларини қайта сотишда, реализация қилиш бўйича айланмалари солиқ солишдан озод қилинган хизматларни олиш ҳуқуқини берувчи абонементлар, йўлланмалар ва бошқа ҳужжатларни реализация қилишда, ваучерларни реализация қилишда солиқ базасини аниқлаш.
- D. Реализация қилиш жойи Ўзбекистон бўлган товарларни (хизматларни) республика солиқ органларида солиқ тўловчи сифатида рўйхатга олинмаган чет эл шахсларидан сотиб олишда, шунингдек давлат мулки билан операциялар бўйича солиқ базасини аниқлаш.
- E. Товарларни тўлиқ ёки қисман қайтариш, буюртмачининг кўрсатилган хизматлардан воз кечиши, битим шартларининг ўзгариши, чегирма тақдим этилиши ҳолатларида солиқ базасига тузатиш киритиш.

6.5-мавзу. Солиқни ҳисобга олиш ва унинг ўрнини қоплашнинг умумий тартиби

Ушбу мавзунини ўзлаштиргандан сўнг номзодлар қўйидагиларни бажара олиши керак:

- A. Ҳисобга олиш қоидаларини тушунтириш.
- B. Реализация қилиш жойи Ўзбекистон деб эътироф этилмайдиган хизматлар кўрсатишда, солиқ тўловчи сифатида ҳисобга қўйишда ёки имтиёзни бекор қилишда, комитент (ишонч билдирувчи) – чет эл шахси билан комиссия (топшириқ) шартномаси бўйича ҳисобга олиш тартибини тушунтириш.
- C. Ҳисобга олинмайдиган солиқ суммасини аниқлаш, товарларни (хизматларни) реализация қилиш бўйича солиқ солинадиган ва солиқдан озод қилинган айланмалар мавжуд бўлганда ҳисобга олиш суммасини ҳисоблаб чиқариш.
- D. Солиқ тўловчи томонидан ҳисобга олишга тузатиш киритиш, шунингдек солиқ органлари томонидан ҳисобга олишга тузатиш киритиш ёки бекор қилиш ҳолатларини фарқлаш.
- E. Солиқнинг ўрнини қоплашнинг умумий қоидаларини тушуниш, қоплаш учун асос бўладиган ҳужжатларни санаб ўтиш.

6.6-мавзу. Солиқни ҳисоб-китоб қилиш, ҳисобот тақдим этиш ва уни тўлаш

Ушбу мавзунини ўзлаштиргандан сўнг номзодлар қўйидагиларни бажара олиши керак:

- A. Бюджетга тўланиши лозим бўлган солиқни ҳисоблаб чиқариш.
- B. Солиқ ҳисоботини тузиш ва топшириш.
- C. Солиқни тўлаш қоидаларини тушунтириш.

7-бўлим. Фойда солиғи

7.1-мавзу. Солиқ тўловчилар ва солиқ агентлари

Ушбу мавзунини ўзлаштиргандан сўнг номзодлар қўйидагиларни бажара олиши керак:

- A. Ким солиқ тўловчи эканлигини аниқлаш.
- B. Қайси ҳолларда солиқ агенти солиқни тўлашини тушунтириш.

7.2-мавзу. Солиқ объекти ва солиқ базаси

Ушбу мавзунини ўзлаштиргандан сўнг номзодлар қўйидагиларни бажара олиши керак:

- A. Солиқ солиш объектини идентификация қилиш, яқка тартибдаги тадбиркор учун ўзига хос хусусиятларни ҳисобга олган ҳолда солиқ солиш мақсадида фойдани аниқлаш.
- B. Солиқ базасини аниқлаш.

7.3-мавзу. Жами даромад

Ушбу мавзунини ўзлаштиргандан сўнг номзодлар қўйидагиларни бажара олиши керак:

- A. Жами даромадга киритиладиган даромадларни фарқлаш, солиқ солиш мақсадида ва бухгалтерия ҳисоби мақсадида даромадни тан олишдаги фарқларни тушунтириш.
- B. Амортизацияланадиган активлар ва бошқа мол-мўлкнинг чиқиб кетишидан, мол-мўлкни (хизматларни) текин олишдан, узоқ муддатли шартномалар бўйича, илгари чегириб ташланган харажатлар ёки зарарларни қоплаш тарзида олинган даромадни тан олиш хусусиятларини тушунтириш.
- C. Дивидендлар, фоизлар ва курсдаги фарқ тарзидаги даромадларга солиқ солиш хусусиятларини тушуниш.
- D. Солиқ солишда ҳисобга олинмайдиган даромадларни идентификация қилиш.

7.4-мавзу. Харажатлар

Ушбу мавзунини ўзлаштиргандан сўнг номзодлар қўйидагиларни бажара олиши керак:

- A. Қайси харажатлар иқтисодий жиҳатдан асосланган деб тан олинишини тушунтириш, солиқ солиш мақсадидаги ва бухгалтерия ҳисоби мақсадидаги харажатларни фарқлаш.
- B. Амортизация харажатлари, шу жумладан инвестициявий чегирмани қўллашда, амортизацияланадиган активларни таъмирлаш бўйича, ҚҚС бўйича харажатлар солиқ ҳисобининг ўзига хос хусусиятларини тушуниш.
- C. Чегириб ташланмайдиган харажатларни аниқлаш.

7.5-мавзу. Солиқ базасига тузатиш киритиш. Зарарларни келгуси даврларга ўтказиш

Ушбу мавзунини ўзлаштиргандан сўнг номзодлар қўйидагиларни бажара олиши керак:

- A. Товарларни тўлиқ ёки қисман қайтариш ёки буюртмачининг унга кўрсатилган хизматлардан воз кечиши, битим шартларининг ўзгариши, нархнинг ўзгариши, харидор томонидан чегирманинг қўлланилиши ҳолатларида даромадлар ва харажатларга тузатиш киритиш тартибини тушунтириш.
- B. Зарарларни келгуси даврларга ўтказиш қоидаларини тушуниш.

7.6-мавзу. Солиқни ҳисоблаш, ҳисобот тақдим этиш ва уни тўлаш

Ушбу мавзунини ўзлаштиргандан сўнг номзодлар қўйидагиларни бажара олиши керак:

- A. Солиқни ҳисоблаб чиқариш.
- B. Солиқ ҳисоботини тузиш ва топшириш.
- C. Солиқни тўлаш қоидаларини тушунтириш.

7.7-мавзу. Якка тартибдаги тадбиркорлар даромадларига солиқ солишнинг ўзига хос хусусиятлари

Ушбу мавзунини ўзлаштиргандан сўнг номзодлар қўйидагиларни бажара олиши керак:

- A. Солиқ солинадиган даромадлар ва чегириб ташланадиган харажатлар ҳисобини юритиш.
- B. Солиқ солишда ҳисобга олинмайдиган даромадларни фарқлаш.
- C. Солиқни ҳисоблаб чиқариш, ҳисобот тузиш ва топшириш, солиқни тўлаш.

8-бўлим. Юридик шахсларнинг мол-мулкига солинадиган солиқ

8.1-мавзу. Солиқ тўловчилар

Ушбу мавзунини ўзлаштиргандан сўнг номзодлар қўйидагиларни бажара олиши керак:

- A. Ўзбекистоннинг резиденти ва норезиденти бўлган юридик шахслар – солиқ тўловчиларни аниқлаш.
- B. Кўчмас мулк эгасининг жойлашган жойини аниқлашнинг имкони бўлмаса, молиявий ижарада (лизингда) солиқни тўловчиларни аниқлаш.

8.2-мавзу. Солиқни ҳисоб-китоб қилиш

Ушбу мавзунини ўзлаштиргандан сўнг номзодлар қўйидагиларни бажара олиши керак:

- A. Солиқ солиш объектларини идентификация қилиш ва солиқ базасини аниқлаш.
- B. Солиқ имтиёзларидан фойдаланиш.
- C. Солиқни ҳисоблаб чиқариш.

8.3-мавзу. Ҳисобот тақдим этиш ва солиқни тўлаш тартиби

Ушбу мавзунини ўзлаштиргандан сўнг номзодлар қўйидагиларни бажара олиши керак:

- A. Солиқ бўйича маълумотнома ва ҳисобот тузиш ҳамда топшириш.
- B. Солиқни тўлаш.

9-бўлим. Юридик шахслардан олинадиган ер солиғи

9.1-мавзу. Солиқ тўловчилар

Ушбу мавзунини ўзлаштиргандан сўнг номзодлар қўйидагиларни бажара олиши керак:

- A. Ўзбекистоннинг резиденти ва норезиденти бўлган юридик шахслар – солиқ тўловчиларни аниқлаш.
- B. Кўчмас мулкни ижарага, шу жумладан молиявий ижарага (лизингга) беришда, ер участкасидан биргаликда фойдаланишда солиқни тўловчиларни аниқлаш.

9.2-мавзу. Солиқни ҳисоб-китоб қилиш

Ушбу мавзунини ўзлаштиргандан сўнг номзодлар қуйидагиларни бажара олиши керак:

- A. Солиқ солиш объектини аниқлаш ва солиқ базасини аниқлаш.
- B. Солиқ имтиёзларидан фойдаланиш.
- C. Солиқни ҳисоблаб чиқариш.

9.3-мавзу. Ҳисобот тақдим этиш ва солиқни тўлаш тартиби

Ушбу мавзунини ўзлаштиргандан сўнг номзодлар қуйидагиларни бажара олиши керак:

- A. Солиқ бўйича маълумотнома ва ҳисобот тузиш ҳамда топшириш.
- B. Солиқни тўлаш.

10-бўлим. Сув ресурсларидан фойдаланганлик учун солиқ

10.1-мавзу. Солиқ тўловчилар

Ушбу мавзунини ўзлаштиргандан сўнг номзодлар қуйидагиларни бажара олиши керак:

- A. Ўзбекистоннинг резиденти ва норезиденти бўлган юридик шахслар – солиқ тўловчиларни аниқлаш.
- B. Якка тартибдаги тадбиркорлар бўлган солиқ тўловчиларни аниқлаш.

10.2-мавзу. Солиқни ҳисоб-китоб қилиш

Ушбу мавзунини ўзлаштиргандан сўнг номзодлар қуйидагиларни бажара олиши керак:

- A. Солиқ солиш объектини идентификация қилиш ва солиқ базасини аниқлаш.
- B. Солиқни ҳисоблаб чиқариш.

10.3-мавзу. Ҳисобот тақдим этиш ва солиқни тўлаш тартиби

Ушбу мавзунини ўзлаштиргандан сўнг номзодлар қуйидагиларни бажара олиши керак:

- A. Солиқ бўйича маълумотнома ва ҳисобот тузиш ҳамда топшириш.
- B. Солиқни тўлаш.

VI. Баҳоланадиган билим ва кўникмалар мавзулари бўйича ҳуқуқий ҳужжатлар

«Солиқ солиш асослари» («Солиқлар ва солиқ солиш» фанининг 1-даражаси) имтиҳонига тайёргарлик кўришда қуйидаги ҳуқуқий ҳужжатлардан фойдаланиш тавсия этилади:

- Ўзбекистон Республикасининг Солиқ кодекси (1-3, 4 (35, 37, 39, 40, 50-53-м.дан ташқари), 6, 7, 9, 10 (91-95-м.дан ташқари), 11, 13, 17-19, 27, 28, 31, 32, 33 (245-м.дан ташқари), 34 (251, 253-м.дан ташқари), 35, 37, 39, 42, 43 (302-м.дан ташқари), 44 (311, 312, 315, 316-м.дан ташқари), 45 (318, 319, 321-331-м.дан ташқари), 46 (334-336-м.дан ташқари), 47 (341-м.дан ташқари), 48, 50-59, 61, 63, 66-боблар)
- Ўзбекистон Республикасининг Божхона кодекси (289, 290, 295-м.)
- Ўзбекистон Республикасининг Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодекси (164, 174, 175, 175³, 179²-м.)
- «Норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар тўғрисида»ги Қонун
- «Фуқароларнинг жамғариб бориладиган пенсия таъминоти тўғрисида»ги Қонун
- Вазирлар Маҳкамасининг «Фуқароларнинг жамғариб бориладиган пенсия таъминоти тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикаси Қонунини амалга ошириш чоратадбирлари ҳақида»ги Қарори
- Иш берувчилар томонидан фуқароларнинг шахсий жамғариб бориладиган пенсия ҳисобварақларига мажбурий бадалларни қўшиш ва тўлаш тартиби тўғрисидаги Низом
- Халқ банки томонидан фуқароларни жамғариб бориладиган пенсия тизимида шахсан ҳисобга олишни юритиш тартиби тўғрисидаги Низом
- Қўшилган қиймат солиғи суммаси ўрнини қоплаш тартиби тўғрисидаги Низом
- Солиқ тўловчиларни қўшилган қиймат солиғи тўловчилари сифатида махсус рўйхатдан ўтказиш тартиби тўғрисидаги Низом
- Қўшилган қиймат солиғи базасини товарларнинг (хизматларнинг) бозор қийматидан келиб чиқиб аниқлаш тартиби тўғрисидаги Низом